Kredit-modul tizimida talabalarning mustaqil ishini rejalashtirish va tashkil qilish	859
Ustadjalilova Xurshida Aliyevna , p. f. n.	
Erkin iqtisodiy hududlarga investitsiyalarni jalg etish innovatsion taraqqiyot omili sifatida	863
Sheraliyeva Saidra Azatovna , katta o'qituvchi	
Paxta-to'qimachilik klasterlari mahsulotlari eksportini motivatsiyalash mexanizmi	868
Mansurov Saidxo'ja Kamalovich , tayanch doktorant	
O'zbekiston Respublikasida soliq tavakkalchilagini boshqarishning hozirgi zamon muammolari.....	875
Abdusherozov Abdullo Baxtiyorovich , mustaqil izlanuvchi	
Modern Methods of Tax Control: Analysis, Problems and Solutions	879
Ergasheva Malikakhon , Independent researcher	
Iqtisodiyotni raqamlashtirish mehnat bozorida bandlik darajasini oshirish omili sifatida.....	884
Amanov Otabek Amankulovich	
Tashqi savdo – statistik o'rganishning obyekti sifatida	888
Ergashev Mirjon Yorqin o'g'li , tayanch doktorant	
Nodavlat notijoart tashkilotlarda maqsadli tushumlarga doir ishchi schotlarni takomillashtirish.....	893
Ne'matov Oybek Ismatullayevich , PhD	
Kichik biznes subyektlarida marketing strategiyasini qo'llash va uni takomillashtirish	897
Saidaxmedova Nodira Ilxamovna , DsC	
Библиометрический анализ области знаний налогового администрирования.....	902
Bokhodir Isroilov , Doctor of Economics, Boburshohh Ibragimov , PhD	
Soliq qarzini undirish amaliyoti va uni tartibini takomillashtirish tahlili.....	909
Raximova Shaxlo Rajapboyevna , mustaqil tadqiqotchi	
Dorivor o'simklarni yetishtirish va qayta ishslashda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning ahamiyati	915
Xo'jaqulova Nigora Rustamovna , PhD	
Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda soliqlarning ta'sirini boshqarish	922
Maxmudov Anvarjon Maxmudovich , mustaqil izlanuvchi	
O'zbekistonda tijorat banklarining investitsion faoliyatining ekonometrik tahlili	930
Achilov Uyg'unjon Ulug'bekovich , dotsent	
Семья и ее роль в воспитании молодежи	935
Зайналов Жаҳонгир Расулович , профессор, Бердикулов Журабек , ассистент	
Don mahsulotlari korxonalarida ishlab chiqarish xarajatlarining boshqaruvin hisobi,	
auditi va tahlil qilishga oid tadqiqotlarga doir mulohazalar	938
Nosirov Ilhom Abbosovich , i.f.d., Abdilalimov Akmaljon Obidjanovich , mustaqil izlanuvchi	
Повышение эффективности маркетинговой деятельности издательско-полиграфических компаний..	943
Холмирзаева Феруза Абдуллаевна	
Совершенствование учета качества в предприятиях по хранению и переработке зерна	949
Холбеков Расул Олимович , доктор экономических наук, профессор	
Mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning zamonaviy yo'nalishlari	956
Axmedova Nafisa Amriddin qizi	
Iste'molchilarga yo'naltirilgan marketing strategiyalarini takomillashtirish	962
Ruziyeva Shaxlo Raupovna	
Xo'jalik yurituvchi subyektlarda ichki auditni tashkil qilishning nazariy asoslari	968
Maxmudova Sharifa Elmurodovna , tayanch doktorant	
Tijorat banklari chakana xizmatlari va ularga ta'sir etuvi omillar	972
Xudayarova Xurshida Abdunazarovna , PhD	
Xalqaro lizing munosabatlarini rivojlantirish va zamonaviy texnologiyalarni	
joriy etishda uning rolini oshirish	978
Latipova Shaxnoza Maxmudovna	
Raqamli banklar faoliyatini tahlil qilish (Tinkoffbank misolida)	983
Nabiyeva Feruza Odilovna , tayanch doktorant, Parpiyeva Ra'no Abdurasulovna	
Пути организации инновационных процессов в Узбекистане	988
Насиров Дилшод Фарходович	
Цифровизация банков: риски и стратегии управления финансовыми активами в цифровой эпохе	992
Кодиров Бобур Абдулбори угли , магистр	



XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA ICHKI AUDITNI TASHKIL QILISHNING NAZARIY ASOSLARI

Maxmudova Sharifa Elmurodovna

Toshkent moliya institute tayanch doktoranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada xo'jalik yurituvchi subyektlarda ichki auditning nazariy asoslari haqida so'z boradi. Bugungi kunda ichki auditning muhimligi, xo'jalik yurituvchi subyektlarda ichki auditning rivojlanishini ta'minlash bugungi kunning dolzarb masalasi ekanligi aks ettirilgan. Ichki auditga olimlarimiz tomonidan turlicha ta'riflar keltirilganligi, ichki auditning maqsadi, vazifalari va bu borada qilingan izlanishlar tahlil qilingan. Ichki auditni xo'jalik yurituvchi subyektlarda kelajak-dagi samarasini oshishi ochib berilgan.

Kalit so'zlar: ichki audit, xo'jalik yurituvchi subyektlar, buxgalteriya hisobi, auditor, auditorlik faoliyati, ichki audit xalqaro standartlari, ichki auditor malaka sertifikati.

Abstract: This article reveals the theoretical foundations of internal audit in business entities. The importance of internal audit today is reflected, the fact that ensuring the development of internal audit in business entities is an urgent problem of this period. The views and opinions of economic scientists on internal audit are analyzed, the purpose and objectives of internal audit are considered, as well as research conducted in this field. As a result, it was revealed that in the future the effectiveness of internal audit in business entities will be only increased.

Key words: internal audit, business entities, accounting, auditor, auditing activities, international standards of internal audit, qualification certificate of internal auditor.

Аннотация: В данной статье раскрываются теоретические основы внутреннего аудита в хозяйствующих субъектах. Отражено значение внутреннего аудита сегодня, то, что обеспечение развития внутреннего аудита в хозяйствующих субъектах является актуальной проблемой современности. Проанализированы взгляды и мнения ученых экономистов о внутреннем аудите, рассмотрены цель и задачи внутреннего аудита, а также исследования, проведенные в этом направлении. В результате выявлено, что в будущем эффективность внутреннего аудита в субъектах хозяйствования будет только повышаться.

Ключевые слова: внутренний аудит, хозяйствующие субъекты, бухгалтерский учет, аудитор, аудиторская деятельность, международные стандарты внутреннего аудита, квалификационный сертификат внутреннего аудитора.

KIRISH

Mamlakatimizda so'nggi yillarda hamma sohada o'zgarishlar sezilarli darajada amalga oshirilmoqda. Shu jumladan buxgalteriya hisobi, audit bo'yicha ham bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Buxgalteriya hisobi, audit sohasining xalqaro standartlar asosida ishlarni tashkil etilishi bo'yicha ko'plab me'yoriy hujjatlar qabul qilinib, ulardan amaliyotga keng foydalanish ham bugungi kunning dolzarb masalasi hisoblanadi.

"Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi qonunning yangi taxriri 25.02.2021-yilda chiqqanligi, audit xalqaro standartlariga 2021-yildan boshlab to'liq o'tganligimiz yuqoridagi fikrimiz dalili hisoblanadi. Bundan tashqari juda ko'plab qonunlar, qarorlar va yo'riqnomalar ishlab chiqarildi va chiqarilmoqda. Jumladan, "Ichki audit xizmati xodimlarini sertifikatlash tartibi" to'g'risidagi Nizom O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 05.05.2021-yildagi 280-sonli qarori, "Korxonalardagi ichki audit xizmati to'g'risida"gi Nizom O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 16.10.2006-yildagi 215-sonli qarori, "Ichki audit milliy standarti" O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining 52-sonli buyrug'i 24.10.2022-yilda ishlab chiqilgan va qolaversa, "Vazirlilik va idoralarning ichki audit xizmati to'g'risida"gi namunaviy Nizom O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 01.08.2022-yildagi 416-sonli qarori asosida qabul qilindi va bu borada ko'plab o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Yurtimizda auditorlik sohasida juda ko'p yangi, zamonaviy va butun dunyoda dolzarb bo'lgan jihatlari kun sayin amaliyotga joriy qilinmoqda va mutaxassislar, olimlarimiz tomonidan ilmiy yo'nalishlar yaratilmoqda desak adashmaymiz.

Shu bilan bir qatorda ichki auditda ham ko'plab o'zgarishlar bo'lishi bugungi kunning eng asosiy jihatiga aylanib borayotganligi bejiz emas. Bugungi kunda nazorat qiluvchi tashkilotlar va bu faoliyat bilan shug'ullanuv-



chilarga bo'lgan talab kun sayin cho'qqiga chiqib borayatganligi guvohi bo'lmoqdamiz. So'zimiz isboti, ichki audit xalqaro standartlari ichki auditorlar instituti tomonidan ishlab chiqilgan va 160 dan ortiq mamlakatlarda amal qilinib kelinmoqda va 30 ga yaqin davlatlar tiliga tarjima qilingan. Ko'plab xorijiy mamlakatlarda ichki auditni o'z mamlakatlarida yuksaltirish bo'yicha bir qancha yo'llarni bosib o'tishdi va buning natijasida aksiyadorlik jamiyatlarining faoliyatida samarali tashkil etilganligi, yuqori foydaga erishganligini ko'rishimiz mumkin. Ichki auditni xalqaro standartlar asosida tashkil etish va audit o'tkazish natijasida tuzilgan hisobotlar va ularning tafsiyalari ham ichki, ham tashqi investorlar uchun qulayliklar yaratdi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yuqorida ichki audit juda muhim deb e'tirof etdik, lekin o'zi "ichki audit nima?" degan savolga javob bersak. Turli olimlar "ichki audit" bo'yicha juda ham ko'p va turlicha fikrlar bildirishgan:

"Korxona tomonidan uning o'z faoliyatini tekshirish va baholash maqsadida tashkil etilgan xizmatidir"-deya ta'rif berishgan xalqaro ichki auditorlar institut mutaxassislari;

"Ichki audit -bu ichki hujjatlar assosida boshqaruv tizimidagi va tashkilot faoliyatidagi turli bo'g'inlar nazoratini olib boruvchi (shaxs) maxsus tizim bo'lib, uning maqsadi boshqaruv tizimiga yordam berishdan iboradir"-deb ta'kidlagan V.V.Burtsev;

A.M.Bogomolov va N.A. Goloshanovlar esa : "Ichki audit umumiyligi negizidan iborat bo'lib, mulkdor huquqini himoya qiluvchi tizim sifatida tashkil etilgan, hamda uning faoliyati buxgalteriya hisobida mulkning saqlanishi va ichki nazoratning ishonchliligi hujjatlarga asosandir" degan g'oyani bildirishgan;

"Ichki auditni ichki nazorat deb sanashni tushunish mumkin, lekin ichki audit mustaqil olib borilishi va aynan, korxonaning har bir bo'g'inida mustaqil tekshiruvlarni olib bora olishi kerakligini e'tirof etmoqchimiz"-deya ta'riflashgan Rossiyalik olimlar.

"Korxonalarda ichki audit xizmati to'g'risidagi Nizom"ga ko'ra: "Ichki audit – korxona boshqaruvining ijro etuvchi organi va tarkibiy bo'linmalari tomonidan O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga, ta'sis hujjatlariga va ichki hujjatlariga rioya qilinishini tekshirish va monitoring olib borish yo'li bilan ular ishini nazorat qilish va baholash, ma'lumotlarning buxgalteriya hisobi va moliya hisobotda aks ettirishning to'liqligi va ishonchliligini ta'minlash, xo'jalik operatsiyalarini amalga oshirishning belgilangan qoidalari va tamoyillari aktivlarning saqlanishi hamda, korporativ boshqarish prinsiplari joriy etilishi bo'yicha korxonaning tarkibiy bo'linmasining (ichki audit xizmati) faoliyati tushuniladi".

"Ichki audit-bu ishlab chiqarish xarajatlarining darajasi, rentabellik, tejamkorlik, maqbul rejimga rioya qilish va ko'rsatilgan xizmatlarning yuqori sifatliligi ustidan nazorat qilishdir"- deydi R. D. Do'stmurodov;

"Ichki audit xizmati -korxona boshqaruvining ijro organi va tarkibiy bo'linmalari tomonidan qonun hujjatlariga, ta'sis hujjatlariga rioya qilinishini tekshirish yo'li bilan ular faoliyatini nazorat qilish va baholash hamda korporativ boshqaruv tamoyillari joriy etilishini ta'minlaydi"-deb ta'kidlagan A. A. Karimov;

"Ichki audit xizmati-bank rahbariyati tomonidan joriy etilgan nazorat tizimi oldiga qo'yilgan vazifalarning qanchalik samarali bajarilganligini tekshiruvchi tizimdir"-deya ta'rif bergan N. F. Karimov;

"Ichki auditorlar-tashkilot, firma, kompaniya va shu kabilarning boshqaruv faoliyatini mustaqil ekspert sifatida baholaydi. Ular tahlil, baholash natijalarini, o'zları tekshiradigan tashkilot faoliyat to'g'risidagi axborotlarni, o'z tavsiyalari va maslahatlarini boshqaruvni amalga oshirayotgan bosh firmaga taqdim etadilar" degan edi Z. T. Mamatov;

"Ichki audit – korxonaning faoliyatini tekshirish va baholash uchun ta'sis etiladigan mustaqil ekspert xizmatidir" deb ta'riflagan B. A. Xasanov.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan olimlarning fikrlari va ta'riflaridan kelib chiqib ichki audit bu keng tushuncha ekanligiga, unga har xil yondashish mumkinligiga yuqorida guvohi bo'ldik. Ichki auditning xo'jalik yurituvchi subyektlarda to'g'ri tashkil etish va takomillashtirish jihatlarini o'rganib, unu amaliyotga tadqiq qilish maqsadga muvofiqqdidi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot ishlarini olib borishda xo'jalik yurituvchi subyektlarda ichki auditni takomillashtirish bo'yicha xorijiy va milliy iqtisodchi olimlarning ilmiy izlanishlari o'rganilib tahlil qilindi. Maqolani tayyorlashda abstrakt mantiqiy fikrlash, kuzatish, tahlil, guruhash, taqqoslash usullaridan keng foydalanildi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Yuqoridagi ichki auditga berilgan ta'riflardan ko'rinish turibdiki, ichki audit xo'jalik yurituvchi subyektlarning faoliyati uchun o'ta muhim va eng ahamiyatli jihatlardan biridir. Korxona boshqaruvini samarali tashkil etish, operativ va to'g'ri qarorlarni qabul qilishda ichki audit ishning samaradorligi oshiradi, ishlab chiqarishdagi kamchiliklar vaqtida aniqlab, ularning oldini oladi. Bundan tashqari buxgalteriya hisobini, hujjatlar bilan ishlashni ham to'g'ri va o'z vaqtida tashkil etilishiga olib keladi. Korxonada xatolarsiz va kamchiliklarsiz ishlash holatini yuzaga keltiradi.



Ichki auditning maqsadi- xo'jalik yurituvchi subyektlarda mulk egalarining resurslarini to'g'ri va unumli saqlash, samarali tarzda ishlatalish bo'yicha manfaatlarni himoya qilish va boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun to'liq, aniq va ichonchli axborotlar bilan ta'minlash.

Ichki auditning vazifalari korxona rahbariyati tomonidan, korxona boshqaruvga oid bo'limlari va korxona talablaridan kelib chiqib belgilanadi;

- aktivlar holatini nazorat qilish va zararlarga umuman yo'l qo'ymaslik;
- tizimdagи nazorat amallarining bajarilishini tasdiqlash;
- ichki nazorat tizimini samaradorligini tahlil qilish va axborotlarga ishlov berish;
- boshqaruv axborot tizimidan uzatiladigan ma'lumotlarning sifatiga baho berish.

Quyida keltirilgan jadvalda ichki auditning ta'rifi va maqsadi, vazifalari keltirilgan. Ushbu chizma orqali ketma-ketlik orqali ichki auditni yana ham yaqindan o'rganib olib, tahlil qilishga yordam beradi.

Ichki audit ta'rifi:

-korxona boshqaruvini samarali tashkil etish, operativ va to'g'ri qarorlarni qabul qilishda ichki audit ish samaradorligi oshiradi, ishlab chiqarishdagi kamchiliklар vaqtida aniqlab, ularning oldini oladi. Bundan tashqari buxgalteriya hisobini, hujjatlar bilan ishlashni ham to'g'ri va o'z vaqtida tashkil etiladi. Korxonada xato va kamchiliklarsiz ishslash holati yuzaga keltiradi.

Ichki auditning maqsadi:

-xo'jalik yurituvchi subyektlarda mulk egalarining resurslarini to'g'ri va unumli saqlash, samarali tarzda ishlatalish bo'yicha manfaatlarni himoya qilish va boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun to'liq, aniq va ichonchli axborotlar bilan ta'minlash.

Ichki auditning vazifalari:

- | | | | |
|---|--|---|---|
| -aktivlar holatini nazorat qilish va zararlarga umuman yo'l qo'ymaslik; | - tizimdagи nazorat amallarining bajarilishini tasdiqlash; | - ichki nazorat tizimini samaradorligini tahlil qilish va axborotlarga ishlov berish; | -boshqaruv axborot tizimidan uzatiladigan ma'lumotlarning sifatiga baho berish. |
|---|--|---|---|

1-rasm: Xo'jalik yurituvchi subyektlarda ichki auditni tashkil etish mexanizmi¹

ILMIY ISHLAR TAHLILI

No	FISH	Mavzu	Ilmiy o'rganilgan yo'nalishlar
1	Axmedjanov Karim Bakidjanovich	Xo'jalik yurituvchi subyektlarda ichki audit metodologiyasini takomillashtirish	<p>-ichki audit xizmatini samarali tashkil etish yuzasidan O'zbekiston auditorlar palatosi qoshida ichki audit tuzilmasini shakllantirish bo'yicha takliflar asoslab berilgan;</p> <p>-ichki auditor xizmatifaoliyatini rejalashtirish va yakuniy auditorlik hisobotini tayyorlash jarayonining izchilligi va o'zaro muvofiqligini ta'minlash mexanizmi takomillashtirilgan;</p> <p>-iqtisodiy rivojlangan demokratik mamlakatlar tajribasi, xalqaro tan olingen talabalarni umumlashtirish va milliy iqtisodiyotning o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olgan holda ichki audit standartlarini takomillashtirish bo'yicha takliflar asoslangan;</p> <p>-xarajatni qisqartirish va daromadni oshirish imkonini beruvchi ichki audit vakolatlarini taqsimlash jarayonining o'zaro bog'liq 3 bosqichni tashkiliy- iqtisodiy mexanizmi ishlab chiqarilgan;</p> <p>-ichki audit nazoratining sifati va audit natijasi ishonchliligini yanada oshirishga yo'naltirilgan 2 audit xizmati faoliyatini tashkil qilishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi takomillashtirilgan.</p>
2	Abdiyeva Nargiza Shuhratovna	O'zbekiston temir yo'llari aksiyadorlik jamiyatি korporativ boshqaruv tizimida ichki auditni takomillashtirish	<p>-korporativ boshqaruv tizimida ichki audit tekshiruvlarining uslubiyotini birxillashtirish imkoniyatini yaratadigan ichki audit xizmatining ishchi hujjatlari shakllari ishlab chiqilgan;</p> <p>-aksiyadorlik jamiyatları korporativ boshqaruv tizimida ichki auditni tashkil qilishda ichki auditni o'tkazish tartibi takomillashtirilgan, hamda ichki audit o'tkazish sifatini nazorat qilish tizimi taklif qilingan;</p> <p>-korporativ boshqaruv tizimida ichki audit xizmati faoliyatini baholash va ichki auditorlikni attestatsiyadan o'tkazish me'zonlari ishlab chiqilgan;</p> <p>-ilk bor aksiyadorlik jamiyatları ichki audit yakuniy natijasi bo'yicha tuziladigan auditorlik hisobotining obyektiv va asoslangan holda kuzatuv kengashiga taqdim etiladigan shakli ishlab chiqilgan;</p> <p>- ichki audit xizmati faoliyatida xalqaro ichki auditorlik professional standartlaridan foydalanish va shu asosda ichki audit xizmati taklifini kengaytirish yo'llari belgilab berilgan.</p>

1 Muallif tomonidan ishlab chiqildi



		-ilk bor byudjet tashkilotlarda hisob siyosatining tarkibiy tuzilmasini shakllantirish tartibi ishlab chiqilgan, hamda ularning uslubiy jihatlari takomillashtirilgan;	
3	Mehmonov Sultonali Umaraliyevich	Budget tashkilotlarda buxgalteriya hisobi va ichki audit metodologiyasini takomillashtirish	-me'yoriy-huquqiy hujjatlar talablariga mos budget tashkilotlari schyotlar rejasiga tasarrufida qoldirilgan mablag'lar hisobiga o'zgartirishlar kiritilishi asoslangan, hamda ishchi schyotlar rejasini restrukturizatsiyalash bo'yicha taklifalar ishlab chiqilgan; -davlat sektorida buxgalteriya hisobining xalqaro standartlariga moslashtirish asosida hisob obyektlarini tan olish, baholash va ular bo'yicha axborotlar shaffofligini ta'minlash belgilab berilgan; -birinchi marta byudjet tashkilotlarda markazlashtirilgan buxgalteriya hisobi faoliyatini tarkibiy tuzilmasi, hamda ularda hisob yuritishning tashkiliy-metologik asoslari shakllantirilgan; - byudjet tashkilotlarda moliyaviy hisobot shakllari tuzilishi va ulardagi ko'satkichlarni birlamchi hisob hujjatlar hamda registrlariga muvofiqligini nazorat qilish tizimi takomillashtirilagan; -ilk bor byudjet tashkilotlarda ichki audit xizmati faoliyatini tashkiliy-uslubiy asoslari shakllantirilgan, hamda samarali amalga oshirish bo'yicha metodologik yondashuvlar ilmiy jihatdan asoslangan; - byudjet tashkilotlarda ichki audit hujjatlari hamda hisobotini shakllantirish bo'yicha ilmiy takliflar ishlab chiqilgan.
4	To'rayev Abdurahim Nortojiyevich	Xo'jalik yurituvchi subyektlarda ichki auditni takomillashtirish	- ichki audit tomonidan subyektning moliyaviy holatiga baho berish va uning samaradorlik ko'satkichlarni aniqlash tizimi takomillashtirilgan; -xo'jalik yurituvchi subyektlarning Kuzatuv kengashi a'zolarini ichki audit xizmati qo'mitasiga jalb etish orqali uning faoliyati samaradorligini oshirishga asoslangan; -xalqaro auditorlik standartlari asosida aksiyadorlik jamiyatlari ichki audit faoliyatiga moslashtirilgan "ichki audit rejasii" va "ichki audit dasturi" ishlab chiqilgan; -O'zbekiston aksiyadorlik jamiyatlari ichki audit xizmati faoliyati samaradorligi xalqaro standartlar asosida baholashning 4 ta sifat me'zonlari taklif etilgan; -xalqaro ichki audit standartlari uslubiyoti asosida ichki audit tekshiruv natijasi bo'yicha tuziladigan yig'ma hisobotni kirish, rejalashtirish, tahliliy va yakuniy qismlardan iborat shaklda tuzish tartibi taklif etilgan; -tashqi audit tekshiruvida ichki audit tomonidan olingan auditotlik dalillaridan foydalanish orqali tashqi auditni o'tkazish muddatini qisqartirish va xarajatlarni kamaytirish asoslangan.

Butun dunyoda ichki auditni rivojlantirish va to'g'ri olib borilishini ta'minlash dolzarb muammolardan biri hisoblanadi va qator tadqiqotlar olib borilishiga sabab bo'lmoqda. Xo'jalik yurituvchi subyektlarda ichki auditni tashkil qilinishi-bu ular uchun juda ham foydali va ancha moliyaviy jihatdan korxonada pul tejalishiga olib keladi va boshqa jihatlarda ham o'z aksini topadi.

XULOSA

Yuqoridagi fikr va mulohazalar shuni ko'rsatadi, ichki auditga turli qarashlar orqali ta'rif berilgan bo'lishiga qaramasdan, lekin uning maqsadi xo'jalik yurituvchi subyektlarda samarali ishni tashkil etish va ichki auditni takomillashtirish orqali kelajakdagi korxona faoliyati uchun ahamiyati juda kattadir. Ichki audit bu korxonada xarajatlarni kamaytirish va yugori samaradorlikka erishish uchun ulkan zamin yaratadi desak adashmaymiz.

Foydalaniqan adabiyotlar ro'yxati:

1. "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi qonunning yangi taxriri 25.02.2021-y.
 2. "Ichki audit xizmati xodimlarini sertifikatlash tartibi" to'g'risidagi Nizom O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasing 05.05.2021-yildagi 280сонли qarori
 3. "Vazirlilik va idoralarning ichki audit xizmati to'g'risida"gi namunaviy Nizom O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 01.08.2022-yildagi 416сонли qarori
 4. Ichki audit milliy standarti" O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining 52сонли buyrug'i 24.10.2022-y.
 5. A.J.Tuychiyev, I.N.Qo'ziyev, R.M.Haydarov, M.M.Yakubov. Ichki audit. Darslik. "Iqtisod-Moliya" nashriyoti Toshkent, 2019, 368 bet
 6. The International Standard of Audit (ISA) 520 "Analytical procedures". www.iasplus.com
 7. Urton L.Anderson, Vichatl J. Head, Sridhar Ramamoorti, Cris Riddle, Mark Salamasick, Paul J. Sobel Internal auditing. Assurance&advisory services. Fourth edition. ISBN-13: 978-0-89413-987-1, p.1-2.
 8. Robert R. Moeller. Executive's Guide to COSO Internal Controls Understanding and Implementing the New Framework. Published by John Wiley & Sons, Inc., Hoboken, New Jersey. Published simultaneously in Canada. 2014. 316 p.

Yashil

IQTISODIYOT
va
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Telefon: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni 03.11.2022-yidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.

